



## 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **151,2 trln.so'mni**, o'sish sur'ati - **110,8 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **107,9 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **37,9 % ni** tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **34,2 % ni** tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni - **55120 birlikni** tashkil etadi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan 151,2 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 28,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 1,1 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 25,6 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati - 128,8 foiz)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 108,3 foiz)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 101,1 foiz)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati - 125,6 foiz)

## 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'rishiga qo'shgan hissasi








### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,7 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,4 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,4 martaga, kaolin - 1,5 martaga, gaz kondensati – 12,9 % ga va tabiiy gaz – 7,1 % ga oshgan. Shu bilan birga neft qazib olish hajmining 9,6 % ga va ko'mirning – 4,2 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


2017 yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
3034,6	<p><b>Ko'mir, ming t.</b></p> 	2908,3	95,8 ↓
620,9	<p><b>Neft, ming t.</b></p> 	561,5	90,4 ↓
41498,8	<p><b>Tabiiy gaz, mln.kub.m.</b></p> 	44447,3	107,1 ↑
1402,9	<p><b>Gaz kondensati, ming t.</b></p> 	1584,4	112,9 ↑
710,0	<p><b>Chaqiq tosh, ming t.</b></p> 	1018,3	143,4 ↑

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,8 trln.so'mni va o'tgan yilga nisbatan 108,3 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,4 % ni (2017 yil yanvar- sentyabr oylarida - 1,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 28,2 % (21,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 31,4 % (27,4%) va quyi texnologiyali - 39,0 % (49,4 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**









Respublika bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o'sishiga o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sezilarli hissa qo'shgan holda 6,3 % ko'rsatkich bilan 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,6 % ni tashkil etdi.







Texnologik jihozlarni kapital ta'mirlash ishlari kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan 123,5%), ammoniy nitrat (115,3%), akril asosli bo'yoq va laklar (131,7%), superfosfatlar (152,7%), formaldegid (1,7 martaga), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2,6 martaga) bo'yicha o'tgan yilning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oshishi ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligiga yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar ham respublika bo'yicha o'rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mahsulotlarining oshishiga imkon berdi. 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmlari: pluglar 60,3 martaga, traktorlar 5,0 martaga, g'alla o'rish kombaynlari 13,1% o'roq mashinalari 1,2% ga oshirildi.

Hisobot davrida ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o'sishiga o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarining qo'shgan hissasi 1,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv tizimlarini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shu jumladan, metallurgiya ishlab chiqarish quvvatlarini yanada to'liqroq ishga solish maqsadida, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiyaviy jarayonlarni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali metallurgiya sanoati korxonalarida boshqaruv samaradorligini (2017-yil yanvar-sentyabrga nisbatan 103,9%) va ishlab chiqarish hajmi oshirilishi ta'minlandi: temirdan chiviriqlar, sterjenlar yoki legirlanmagan po'lat (150,9%), formali va maxsus profillar (161,3%), mis folga (124,1%).

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
101367		127423	125,7 ↑
2923	<b>Yuk avtomobillari, dona</b> 	3032	103,4 ↑
685	<b>Avtobuslar, dona</b> 	351	51,2 ↓
71836	<b>Avtomobil dvigatellari, dona</b> 	96904	134,9 ↑
579,3	<b>Paxta tolasi, ming t.</b> 	517,7	89,4 ↓
120,8	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</b> 	127,2	105,3 ↑

2017 yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>			
7189		7443	103,5 ↑
<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>			
816,7		873,2	106,9 ↑
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
737,9		806,8	109,3 ↑
<b>Portlandsement, ming t.</b>			
6484,0		6132,9	94,6 ↓
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.</b>			
8793,7		11585,6	131,7 ↑
<b>Traktorlar, dona</b>			
528		2624	5,0m ↑



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,1 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,7 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 0,6 % ga oshganligi kuzatildi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 27,1 % ga, tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 1,9 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 30,3 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 30,5 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 57,3 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 7,9 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,9 % ni tashkil etdi.

### ***2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 62,5 % dan 2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida 66,5 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,5% ni (6,8%) tashkil etdi.

### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 58,5 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122,6% ni tashkil etdi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 31,6% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 38,7% gacha oshdi.


### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.***



Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmini o'sishiga qo'shma korxonalarining qo'shgan hissasi 7,9% ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishni imkonini berdi.

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi 22,5 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 77,4 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**




**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 18,8 % dan ulushini), Toshkent viloyati (15,9 %), Navoiy (10,7 %), Andijon (10,6 %), Qashqadaryo (6,4 %), Farg'ona (5,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulushi Surxondaryo (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmida 1,3 % ulushni), Jizzax(1,4 %), Sirdaryo (2,0 %), Namangan (2,5 %) va Xorazm (2,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar Andijon (2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan 131,5%), Surxondaryo (117,2%), Xorazm (114,4%), Namangan (111,6), Toshkent (109,1%) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlarini sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (16853,2 ming so'm), Toshkent shahrida (11451,6 ming so'm), Toshkent (8361,0 ming so'm) va Andijon (5263,5 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (4599,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Surxondaryo (790,4 ming so'm), Namangan (1369,2 ming so'm), Jizzax (1575,0 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan sezilarli darajada pastligi kuzatildi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi va o'sish sur'atlari



### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 34,2 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,6 %), Namangan (69,7 %), Jizzax (66,6 %) va Samarqand (52,0 %) oblastyax. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (17,7 %), Navoiy (14,4 %), Toshkent (20,0 %), Andijon (21,6 %) va Qashqadaryo (22,2 %) viloyatlarida kuzatildi.

**2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**

